

AHOLINI BANDLIGINI TA`MINLASH VA YANGI ISH O`RINLARI YARATISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ZARURATI

*Buxoro Davlat Universiteti
Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi*

Bakayeva Mohira

“Iqtisodiyot va turizm” fakulteti

4-bosqich talabasi

Qo`ziyev Diyorbek

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ri, ahamiyati va zarurati haqida nazariy va amaliy jihatlar ochib berilgan.

Tayanch so`zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, aholining ish bilan bandligi, investitsiya.

Mamlakatimizda globallashtirish, raqamlashtirish sharoitida mavjud muammolarning hal etilishi aholi turmush darajasini tubdan o'zgartirish, yaxshilashni talab etadi. Bu masalalar mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi, yangi ish o'rinlarini yaratish mexanizmlari, hududlar aholisini ish bilan band etishning yangi shakllarini baholash usullarini takomillashtirilishini talab etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib farovon turmush darajasini ta'minlashdan iborat. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatimizda yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakatimizda boshlangan tub islohotlarning asosini “O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etadi va unda aholining ish bilan bandligi masalasi alohida o'rin tutadi. Mamlakatimizda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat

bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o'ta dolzarb qilib qolmoqda²⁶.

Hozirgi, globallashtirish, raqamlashtirish jadallashtirib borayotgan bir davrda aholini ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Shu sababli uni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish muhim hisoblanadi. Bunda avvallo, ish bilan bandlik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini chuqur anglab yetish maqsadga muvofiqdir.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri-uning mehnat sohasi va u bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni qondirish yo'lini ochib beradi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanib, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining ya'ni o'rta sinfning shakllanishini taminlaydi.

Bugungi kunda respublikamizdagi ustuvor yo'nalishlardan biri - aholi bandligini oshirish, ishchi kuchidan maqsadli foydalanish, foydali mehnatga layoqatli aholining ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mamlakat aholisining ish bilan bandligi darajasini oshirish va mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda: iqtisodiyotni rivojlantirish negizida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochilib, bu faoliyat qizg'in qo'llab quvvatlanmoqda; aholining mehnat faolligini, oilaviy ijara, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish negizida aholining o'zini-o'zi ish bilan band qilish darajasi oshirilmoqda; aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori takomillashtirilmoqda. Buning uchun zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarni tugatish yoki ixtisosini o'zgartirish ishlari olib borilmoqda. Bizning fikrimizcha, ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng

²⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoniga](#) 1-ILOVA. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, solihlarni oqilona belgilash orqali erishiladi. Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirishga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berish, ilg'or texnologiyalarni tadbir etish, bozor sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati tarmoqlarining asosiy mahsulotlariga davlat buyurtmasini belgilash, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag` bilan ta'minlash kiradi.

Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusi ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlar o'z navbatida, istiqbolli taklif va tashabbuslarni o'z vaqtida rag'batlantirishga katta yo'l ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojiga keng yo'l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylanib bormoqda.

Tadbirkorlik sohalarida yangi ish o'rinlari tashkil etish, investitsiya, soliq, pul-kredit va ilmiy-texnikaviy siyosatni takomillashtirish, bozor xizmatlarining tarmoq tuzilmasida innovatsion tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu xizmatlar ko'rsatish aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirilishini ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi mazkur sohaning jadal rivojlanishini ta'minlamoqda. Imtiyozli kreditlarning maqsadli yo'naltirilishi faqatgina shahar joylarida emas, balki qishloq hududlarida ham kichik tadbirkorlikning bozor xizmatlari ishlab chiqarishi umumiy hajmining oshib borishi, ishga joylashishga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bozorida zamonaviy infratuzilma va raqobat muhitini yaratishda, aholining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirishda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga

1-ILOVA. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

2. Бондяшева А.С., Землянухина Н.С. Управление занятостью: роль малого бизнеса в достижении эффективной занятости населения региона // Изв. Саратов. ун-та. Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. 2016. Т. 16. вп. 4. С. 429- 434.

3. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi. www.stat.uz

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni. [http://uza.uz/uz/documents/tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlash](http://uza.uz/uz/documents/tadbirkorlik-faoliyatining-jadal-rivojlanishini-ta-minlash).

5. Qayimova, Z. (2023). Ways to Develop Economic Infrastructure in Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

6.Kadirovna, S. N. (2024). Importance of Foreign Experience for Uzbekistan in the Transition to a Green Economy. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(4), 48-51.

7.Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

8. Niyozova, I. (2023). The Reforms Implemented In The Higher Education System Of The Republic Of Uzbekistan And Their Achievement Of Financial Independence. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 38(38).

9. Abdulloyev, A. (2021). Innovative factors for agriculture development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 8(8).

10. Dustova, A. K. (2023). Features Of Esg Management Development In Uzbekistan. Educational Research In Universal Sciences, 2(17), 53-57.

11.Igamova, S. (2023). Foreign Experience Of Achieving Efficiency Through Improving Innovation. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

12.Shoimardonkulovich, Y. D., Kadirovna, S. N., & Abdulaziz, R. (2024). Legal Framework for the Introduction of a Green Economy in Uzbekistan. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(4), 345-350.

13. Muhammedrisaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Rasulovna, K. N. (2021, March). Use of digital technologies in marketing. In E-conference Globe (pp. 281-284).

14. Tairova, M. M., Kadirova, N. R., & Aminova, N. B. (2021). The Essence And Content Of Marketing In The Field Of Innovation. *Essence*, 5(2), 261-264.

15. Junaydulloyevich, A. A., & Rasulovna, K. N. (2021). Price Formation in Marketing: A Tool for Price Formation and Change. *Academicia Globe*, 2(6), 142-146.

16. Таирова, М. М., & Дустова, А. К. (2020). Роль гостиничных сетей в индустрии туризма. In Прорывные научные исследования: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 57-59).

18. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118. 19. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 7(7).

20. Odinaeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. *Miasto Przyszłości*, 84-86.

21. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).

22. Navruz-Zoda, L. B., & Navruz-Zoda, Z. B. (2020). Improvement Of Social Prestige Of Entrepreneurial Companies In Bukhara Region. *Academy*, (3), 37-39. 7. Usmanova, A. B. (2022). Sport Tourism As A Sport And Form Of Activity. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(1), 212-214.

23. Усманова, А. (2022). The Current State And Analysis Of The Tourist Potential Of The Bukhara Region. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 15(15).

24. Navruz-Zoda, Z. (2023). Development Of Self-Employment Of The Population As A Factor Of Ensuring Economic Stability. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 33(33).

25. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(1), 207-211.

26. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.